

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Eshmamatova Sitora Tuyg'un qizi

*Toshkent TMC instituti Pedagogika
va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.*

Farxadova Iroda Jahongir qizi

*Toshkent TMC institute Maktabgacha
ta'lif sirtqi yo'nalishi Talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limga mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta'limga tizimidagi o'rni va ahamiyati yorilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limga jarayonida differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan metodlar, hamkorlik pedagogikasi va interfaol metodlarning qo'llanishi muhimligi ta'kidlangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan elektron ta'lif resurslari, onlayn platformalar, multimedia vositalari va assistiv texnologiyalarning imkoniyatlari keltirib o'tilgan. Xulosa qismida inklyuziv ta'limga samarali tashkil etishda pedagogik va AKT texnologiyalarining integratsiyasi alohida ahamiyatga ega ekani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lif, pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif, interfaol metodlar, assistiv texnologiyalar.

Globallashuv jarayonida ta'lif tizimining asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchiga teng ta'lif imkoniyatini yaratishdir. Inklyuziv ta'lif g'oyasi ham shundan kelib chiqadi. Mazkur ta'lif modeli imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama vakillari hamda barcha o'quvchilarning yagona muhitda bilim olishini ta'minlaydi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, inklyuziv ta'lif jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalari, internet tarmog'i hamda turli xil elektron axborot resurslaridan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali nafaqat darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda olib borish, balki barcha fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirish, ularda mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Talabalarning borliqni chuqurroq anglab yetishi, ularni ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi uchun nazariy bilim amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashishi zarur.

Amaliyot orqali olingan nazariy bilim yanada mustahkamlanadi, natijada talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoga ijodiy yondashish qobiliyatlari shakllanadi. Shu bois ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro faol muloqot — interaktiv aloqa muhim o‘rin tutadi. Bu aloqa talabaning bilimni chuqurroq egallashi, savollar berib o‘zini qiziqtirgan masalalarga javob topishi hamda o‘qituvchining individual yondashuvini his qilishi uchun zamin yaratadi.

Shuningdek, hozirgi davr ta’limida zarurat tug‘ilganda masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish juda foydalidir. Masofaviy ta’lim deganda, ta’lim markazidan uzoqda turib, eng zamонавиу ахборот-комуникация тарниларидан орқали билим олиш яратони тушунилади. Бу шаклнинг афзалиги шундаки, о‘кувчи юки талаба жисмонан дарсга катнашса олмаган тақдирда ham, elektron resurslar орқали ta’lim materiallarini mustaqil o‘rganishi, virtual mashg‘ulotlarda ishtirok etishi mumkin. Shu maqsadda, masofaviy ta’lim uchun maxsus metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, interaktiv topshiriqlarni tayyorlash va amaliyotga joriy etish o‘quv jarayonini samaradorligini yanada oshiradi.

Inklyuziv ta’lim – ta’lim jarayonida farqlilikni qabul qilish, har bir o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda individual yondashuvni ta’minlaydigan tizimdir. Bunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy rivojlanishga yo‘naltiruvchi hamdir. Inklyuziv yondashuv ta’lim muassasasida tolerantlik, hamkorlik va insonparvarlik muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limda pedagogik texnologiyalar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanadi:

- Differensial ta’lim – o‘quvchilarning imkoniyati, qiziqishi va bilish darajasidan kelib chiqib, turli topshiriqlar berish.
- Hamkorlik pedagogikasi – o‘qituvchi, ota-onasi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.
- Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish.
- Interfaol metodlar – munozara, rol o‘ynash, “aqliy hujum”, klaster va boshqa metodlar yordamida ta’lim jarayonini qiziqarli qilish.

Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish katta imkoniyatlarni ochib beradi. Biroq bu jarayonni samarali tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Yangi texnologiyalar ta’lim tizimining an’anaviy shakl va tartiblarini tubdan o‘zgartirib, alohida ehtiyojga ega bolalar ta’limida ilgari hukm surib kelgan passiv yondashuvlarga nisbatan faol va zamонавиу ахборот-комуникация тарнилари орқали узувларни амалга оshirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ko‘rish nuqsoniga alternativlarni taklif etadi.

Yangi axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Masalan, jismoniy harakat nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilar maxsus dasturlar orqali yozuvlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ko‘rish nuqsoniga

ega o‘quvchilar matnlarni audio shaklda tinglash yoki maxsus ekran o‘quvchi dasturlar orqali o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularga bilim olishda teng imkoniyat yaratib, mustaqil o‘qish, yozish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi.

Ya’ni, AKT vositalari inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda keng imkoniyatlar yaratadi:

Elektron ta’lim resurslari – darsliklarning audio, video, interaktiv shakllari imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulaylik yaratadi.

Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Teams) – masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda yordam beradi.

Multimedia vositalari – animatsiya, interaktiv test va vizual materiallar o‘quvchilarning bilimni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Assistiv texnologiyalar – Braille shriftli dasturlar, nutqni matnga aylantiruvchi yoki matnni ovozga aylantiruvchi ilovalar imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limini qo‘llab-quvvatlaydi.

AKT va pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish inklyuziv ta’limda samaradorlikni oshiradi. Masalan, interfaol metodlarni virtual sinf orqali tashkil etish, individual topshiriqlarni elektron platformalar yordamida nazorat qilish, shuningdek, audio-video materiallardan foydalanib ko‘rgazmalilikni kuchaytirish mumkin.¹

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim jamiyatning ijtimoiy tenglik, adolat va insonparvarlik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqaradi. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa ta’lim jarayonini yanada qulay va samarali qilishga xizmat qiladi. Shunday ekan, inklyuziv ta’limda AKT va pedagogik yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash – ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Booth T., Ainscow M. The Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools. – Bristol, 2016.
3. Xoliqova G., Abduqodirova Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limda. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

¹ Xoliqova G., Abduqodirova Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limda. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.